

TOHIR MALIK ASARLARIDA MAQOLLARNING QO'LLANILISHI

Iroda BAHRONOVA,

Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) **N.J.Yarashova**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tohir Malik asarlaridagi maqollarning o'rni, noyob topilmalar, tilshunoslikda bu birliklarni o'rgangan olimlarning talqinlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: maqol, ko'p ma'nolilik, sinxronik va diaxronik talqin, ikki planlilik hodisalari.

USE OF PROVERBS IN THE WORKS OF TAHIR MALIK

Iroda BAHRONOVA,

First year student of faculty of Uzbek language and literature at Navoi State Pedagogical
Institute

Supervisor: Ph.D. **N.J.Yarashova**

Annotation: This article discusses the place of proverbs in Tahir Malik's works, unique findings, and the interpretations of scholars who have studied these units in linguistics.

Keywords: proverb, ambiguity, synchronous and diachronic interpretation, duality

O'zining badiiy mahorati, noyob topilmalari bilan haligacha kitobxonlar ko'nglini zabt etib kelayotgan qalami o'tkir ijodkorlardan biri Tohir Malikdir. Adibning har bir asarida o'zbek tilining keng imkoniyatlarini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, yozuvchi ijodida maqollarning o'rni beqiyos. Tilshunoslikda o'zbek xalq maqollarini yana bir boshqa yo'nalishda o'rganish bo'yicha ancha natijalarga erishildi. O'zbek yozuvchilari, shoirlari asarlarining tili va uslubiga oid ko'pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarida xalq maqollarining ma'noviy, uslubiy xususiyatlarini o'rganishga ham alohida e'tibor berildi. Bu jihatdan V.Abdullayev, X.Doniyorov, S.Mirzayev, O.Abdullayev, L.Azizxonova, S.Asqarov, A.Jo'raxonov, M.To'ychiyev, M.Hakimov, M. Husainov, M.Sadriddinovalarning ishlari diqqatga sazovordir.

Maqollar haqida to'xtalar ekanmiz, ularga xos muhim jihatlar quyidagilardan iborat: Birinchidan, maqol shunchaki so'zlar tizmasi bo'lmay, balki o'tkir kuzatuvchanlik asosida vujudga kelgan fikrlarning xulosasi bo'lishi darkor (frazologizm uchun esa, odatda, tayyor so'z tizmalarining ko'chma ma'no ifodalashi va shu holatda turg'un so'z bog'lanmasiga aylanishi kifoya);

Ikkinchidan, bu xulosa jamoatchilik tomonidan tasdiqlanishi shart.

Yana shuni aytish kerakki, yuqoridagi ikki shartga javob beruvchi ibratli fikr ixcham, mukammal, badiiy jihatdan puxta, kristal shaklga ega bo'lishi kerak. Demak, maqol ibora singari tayyor til birligi emas, balki omma tomonidan yaratilgan kichik janrli badiiy asardir.

Maqollar ma'noviy ikki planlilik xususiyatiga ega. Tohir Malikning "Talvasa" asarida keltirilgan - *Boylarning dushmani ko'p-da, och qornim - tinch qulog'im deydigonlar ham topiladi (24-bet)* matnida "och qornim, tinch qulog'im"; - *Beli og'rimaganning non yeyishiga*

boq deyishadi-ku, beli og'rib pul topmagandan keyin bularga besh ming ham, ellik ming ham pul emas (42-bet) matnida “beli og'rimaganning non yeyishiga boq”; “Shaytanat” asaridagi - *Puli ko'pning aqli kamroq bo'larkan. Xudo senga boylik berdimi-berdi (109-bet)* matnida “puli ko'pning aqli kamroq bo'ladi” kabi maqollar ma'noviy jihatdan sinxronik ikki planlilikni tashkil etadi. Ya'ni maqol tarkibidagi so'zlarning o'z ma'nosi ham, ko'chma ma'nosi ham o'quvchiga ma'lum.

“Talvasa” asaridagi - *Ana, qush tilini qush biladi. Sen u ahmoq bilan gaplash (48-bet)* matnida “qush tilini qush biladi”, “Shaytanat” asaridagi - *Xolidiy o'ylay-o'ylay, achchiqni achchiq degan aqidaga amal qilib, Asadbekning kushandasi kim bo'lishi mumkin, deb so'rab-surishtirdi (179-bet)* matnida “achchiqni achchiq kesadi”, - *Ha, senga baribir. Sen ishqiy yo'q eshak, dardi yo'q kesaksan (119-bet)* matnida “ishqiy yo'q eshak, dardi yo'q kesak”, - *Boshga tushganni ko'z ko'rar ekan, - dedi Yigitali, xuddi Zelixon uni ayblagan-u, endi o'zini oqlash lozim bo'lganday (116-bet)* matnida “boshga tushganni ko'z ko'rar”, - *Ish yurishmasa, atala tish sindiradi, degan maqol bor. Sizning ishingiz shunaqa bo'libdi (157-bet)* “ishi yurishmasa, atala tish sindiradi”, - *Tog'ning toqqa ishi tushmas ekan, odamga odamning ishi tushib turarkan.- Shomil, eshitdingmi? Hofizda aql ko'p (160-bet)* matnida “tog'ning toqqa ishi tushmaydi, odamga odamning ishi tushadi” singari maqollar esa diaxronik nuqtayi nazardan ma'noviy ikki planlilikni tashkil etadi. Chunki davr o'tishi bilan bilan maqollar asosida voqeahodisa yo'qoladi va unutiladi yoki maqollar tarkibidagi ba'zi bir so'zlar iste'moldan chiqadi, arxaiklashadi. Natijada maqol tarkibidagi so'zlarning asl ma'nosi o'quvchiga tushunarli bo'lmay qoladi.

Bundan tashqari, “Shaytanat” asarida - *Ko'r hassasini bir marta yo'qotar ekan, ko'zi ochiqlar ikki marta yo'qotmasin, tag'in (86-bet)* matnida “ko'r hassasini bir marta yo'qotadi”, - *Qariguncha yo'g'on ingichkalashib, ingichka uzilarkan (109-bet)* matnida “yo'g'on cho'zilguncha ingichka uziladi”, - *Odam qo'lidan keladigan ishga harakat qilishi kerak. Ko'rpaga qarab oyoq uzatavering (174-bet)* matnida “ko'rpangga qarab oyoq uzat”, - *Mashoyixlar “bedardning oldida boshimni og'ritma” degan ekanlar (174-bet)* matnida “bedardning oldida boshimni og'ritma”, - *Eshakni yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi deganlariday, hech kutilmaganda eshik ochilib, Xolidiy ko'rindi (177-bet)* matnida “eshakni yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi” kabi an'anaviy maqollarni uchratish mumkin. Asarda qo'llanilgan “dunyoda sevintirguvchi biron narsa yo'qki, ketidan xafa qiluvchi bir narsa kelmasa”[90] (*Roviylar derlar: dunyoda sevintirguvchi biron narsa yo'qki, ketidan xafa qiluvchi bir narsa kelmasa*) maqolining bugungi talqini sifatida “oyning o'n beshi yorug' bo'lsa, o'n beshi qorong'u bo'ladi” deya, “sen chinor soyasi bo'lma, chinorning o'zi bo'l”[146] (*Kimdir o'g'liga “sen chinor soyasi bo'lma, chinorning o'zi bo'l” degan ekan. Bu hikmat Hosilboyvachchaga juda yoqib qolgan*) maqolini “otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l” tarzida, “Talvasa” asaridagi “sen mashinagni ko'rsat, men otang kimligini aytaman” [25] (*Hatto Tal'at ish boshlaganidan keyin ham “Kimning o'g'lisan?” deb so'ramadi...o'zicha “Sen mashinangni ko'rsat, men otang kimligini aytaman” deb qo'ydi*) maqolini esa “do'sting kimligini ayt, men sening kimligingni aytaman” deb ifodalash mumkin.

Ko'rib o'tilganidek, yuqoridagi maqollar taniqli adib Tohir Malikning “Shaytanat” hamda “Talvasa” asarida turli uslubiy vazifalarda qo'llanilgan. Bu birliklar bir o'rinda personajlarning individualligini, yana bir o'rinda esa badiiyligini oshirishga xizmat qilgan. Tohir Malikning asarlarida bunday til va nutq birliklarining noyob topilmalarini ko'plab uchratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayeva B. Maqolning yondosh hodisalarga munosabati va ma’naviy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2006.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
3. Malik T. Shaytanat. 4 jildlik, 2-jild. – Toshkent: Sharq. 2006.
4. Malik T. Talvasa. – Toshkent: Sharq. 2012.